

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Холбеков Абугани</b> ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
<b>2. Султанова Эътибор</b> МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
<b>3. Латипова Нодира</b> МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
<b>4. G'afforova Mavlyuda</b> JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
<b>5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir</b> O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
<b>6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi</b> IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
<b>8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон</b> РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
<b>9. Mannanova Nilufar</b> BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
<b>10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz</b> JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
<b>11. Radjabova Aziza</b> XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
<b>12. Ixtiyarov Farxod</b> RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
<b>13. Ergasheva Mehribon</b> “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
<b>14. Mengliyev Atabek</b> REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

<b>15. Джураева Анна, Сеитов Азамат</b> СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
<b>16. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
<b>17. Husenov Sirojiddin</b> “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
<b>18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek</b> RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
<b>19. Toshbo‘riyeva Sevara</b> TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
<b>20. Mannanov Erkin</b> ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
<b>21. Артыкова Алёна</b> ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
<b>22. Zaitova Sitara</b> O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
<b>23. Raximjonova Gulzira</b> DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
<b>24. Ro‘yiddinova Aisha</b> O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
<b>25. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Mannanov Erkin,**

О‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha

Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tadqiqotchisi

e-mail: erkin2627gmail.com

### ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111847>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada etnoturizmning nazariy-metodologik asoslari, uning shakllanish tarixi va zamonaviy turizm tizimida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda etnoturizm tushunchasining ilmiy mazmuni ochib berilgan bo‘lib, uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari hamda jahon va milliy turizm amaliyotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, etnoturizmning xalqlarning urf-odatlarini, an‘analari, turmush tarzi, milliy qadriyatlarini va madaniy merosini o‘rganish hamda ularni turistik resurs sifatida namoyon etishdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada etnoturizm va etnografik turizm tushunchalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, xususan etnoturizm salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan so‘nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Shu bilan birga, etnoturizmning madaniy merosni asrash, milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligi ta’kidlangan.

**Kalit so‘zlar:** turizm, etnoturizm, etnografik turizm, etnomadaniy turizm, etnopark, etnik guruhlar.

**Маннанов Эркин,**

Соискатель Координационно-методического центра новейшей истории

Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан

e-mail: erkin2627gmail.com

### ВЗГЛЯД НА ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭТНОТУРИЗМА

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы теоретико-методологические основы этнотуризма, история его формирования и место, которое он занимает в современной системе туризма. В исследовании раскрыто научное содержание понятия «этнотуризм», освещены его происхождение, этапы развития, а также значение в мировой и национальной туристической практике. Кроме того, показана роль этнотуризма в изучении обычаев, традиций, образа жизни, национальных ценностей и культурного наследия народов, а также в представлении этих элементов в качестве туристических ресурсов. В статье с научной точки зрения проанализированы сходства и различия между понятиями «этнотуризм» и «этнографический туризм». Также рассмотрены содержание и значение указов и постановлений, принятых в

последние годы в Республике Узбекистан в целях развития туристической отрасли, в частности эффективного использования потенциала этнотуризма. Наряду с этим подчёркивается, что этнотуризм является важным фактором сохранения культурного наследия, укрепления национального самосознания и содействия социально-экономическому развитию регионов.

**Ключевые слова:** туризм, этнотуризм, этнографик туризм, этнокультурный туризм, этнопарк, этнические группы.

**Mannanov Erkin,**

Researcher at the Coordination and Methodological Center  
for the Contemporary History of Uzbekistan under  
the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan  
e-mail: erkin2627gmail.com

## A GLANCE AT THE THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ETHNO-TOURISM

### ABSTRACT

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of ethno-tourism, the history of its formation, and its place within the contemporary tourism system. The examines reveals the scientific essence of the concept of ethno-tourism, highlighting its origins, stages of development, and significance in both international and national tourism practices. Furthermore, the article demonstrates the role of ethno-tourism in exploring the customs, traditions, lifestyles, national values, and cultural heritage of various peoples, as well as in presenting these elements as valuable tourism resources. The paper also provides a scientific analysis of the similarities and differences between the concepts of ethno-tourism and ethnographic tourism. In addition, it examines the content and significance of decrees and resolutions adopted in recent years in the Republic of Uzbekistan aimed at developing the tourism sector, particularly through the effective utilization of the country's ethno-tourism potential. The study emphasizes that ethno-tourism serves as an important factor in preserving cultural heritage, strengthening national identity, and promoting the socio-economic development of regions. The findings contribute to the improvement of the theoretical foundations of ethno-tourism and to the identification of promising directions for its further development.

**Key words:** tourism, ethno-tourism, ethnographic tourism, ethnocultural tourism, ethnopark, ethnic groups.

### KIRISH

Jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, madaniy xilma-xillikni asrash va milliy merosga bo'lgan qiziqishning ortishi turizmning yangi yo'nalishlarini shakllantirmoqda. Shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan etnoturizm xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi va milliy qadriyatlarini o'rganish hamda targ'ib qilishga qaratilgan muhim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda etnoturizm nafaqat turistik xizmatlar bozorining istiqbolli segmenti, balki milliy madaniy merosni saqlash, etnik o'ziga xoslikni mustahkamlash va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashning samarali vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda etnoturizm turizmning madaniy, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi. U turistlarga muayyan etnik guruhlarining hayot tarzi, milliy taomlari, xalq amaliy san'ati, folklori, urf-odatlarini va an'anaviy xo'jalik yuritish usullari bilan tanishish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, etnoturizm mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va milliy madaniyatni kelajak avlodlarga yetkazishga xizmat qiladi.

Etnoturizmning nazariy jihatdan shakllanishi antropologiya, etnologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va turizm nazariyasi kabi fanlarning o'zaro integratsiyasi asosida rivojlangan.

Mazkur sohadagi tadqiqotlar etnik identiklik, madaniy meros, madaniy almashinuv, ijtimoiy kapital va hududiy rivojlanish kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu nuqtai nazardan etnoturizmni tadqiq etishda uning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston boy tarixiy-madaniy merosga, turli etnik guruhlar va milliy an‘analarga ega mamlakat sifatida etnoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq og‘zaki ijodi, an‘anaviy bayramlar, etnografik qishloqlar va madaniy meros ob‘ektlarini turizmga integratsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa etnoturizmning nazariy asoslarini yanada chuqur o‘rganish va uning rivojlanish omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi etnoturizmning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish, uning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish hamda turizm sohasidagi zamonaviy ilmiy yondashuvlarni umumlashtirishdan iborat. Shu maqsadda etnoturizm tushunchasining ilmiy talqinlari, uni tadqiq etishning asosiy nazariy yondashuvlari va metodologik tamoyillari ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati etnoturizmning konseptual asoslarini tizimlashtirish, uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy funksiyalarini aniqlash hamda mazkur sohadagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy baza yaratishdan iborat. Shu jihatdan etnoturizmning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish zamonaviy turizmshunoslik va sotsiologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Turizm mamlakatlarda davlat iqtisodiyotining o‘shida alohida o‘rin tutuvchi serdaromad soha hisoblanadi. Bir necha yildirki, dunyo bo‘ylab barcha davlatlar mazkur sohaga alohida e‘tibor qaratmoqda, uning rivoji uchun zarur shart-sharoitlar yaratmoqda, o‘z salohiyati va mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda kelajagi va rivoji uchun mazkur sohaga sarmoya kiritmoqda. Shu sababli ham har qadamda “turizm” atamasini ko‘plab uchratmoqdamiz.

### **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda etnoturizmning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish va uning ijtimoiy-madaniy hamda iqtisodiy ahamiyatini baholash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik negizini turizm sotsiologiyasi, etnologiya, madaniyatshunoslik, antropologiya va hududiy rivojlanish nazariyalari tashkil etadi. Etnoturizm ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa sifatida qaralib, uning shakllanishi va rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv etnoturizmni etnik madaniyat, milliy meros, mahalliy aholi, turistik infratuzilma va davlat siyosati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq munosabatlar majmuasi sifatida o‘rganish imkonini berdi. Mazkur yondashuv etnoturizmning jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rni va funksiyalarini kompleks baholashga xizmat qildi.

Shuningdek, struktura-funksional yondashuv asosida etnoturizmning milliy qadriyatlarni saqlash, madaniy merosni ommalashtirish, etnik identiklikni mustahkamlash va mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish kabi funksiyalari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv etnoturizmning jamiyat rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham keng foydalanildi. Bu usul orqali turli mamlakatlarda etnoturizmni rivojlantirish tajribalari o‘rganilib, ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Xususan, etnoturizmni tashkil etish, boshqarish va targ‘ib qilish bo‘yicha xalqaro amaliyotlar tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari baholandi.

Qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar etnoturizmning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy funksiyalarini baholash hamda O‘zbekistonda etnoturizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Mahalliy va xorijiy adabiyotlarda “turizm” tushunchasiga ko‘plab yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ko‘plab turlari mavjud. Adabiyotlarda ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgani sababli etnomadaniy turizm, etnoturizm va etnografik turizm atamalari o‘xshash ma‘noda, ba‘zan esa hatto sinonim atamalar sifatida qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin.

V.N.Presnyakov va M.A.Julinlar etnik va etnografik turizmni sinonim deb hisoblaydi [1]. Sh.J.Xashimov esa, etnoturizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan etnomadaniy, etnik, etnografik, ekologo-etnografik, ekzotik, antropologik, etnobilish, nostalgiya, etnosotsial turizm turlarini o‘zida ifodalashini ta’kidlaydi [2].

Fikrimizcha, etnomadaniy turizm kengroq ma’noga ega ekanligi sababli etnografik turizm va etnoturizm uning tarkibiga kiradi.

Etnomadaniy turizm – sayyohlikning eng qadimiy va shu bilan birga eng zamonaviy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, inson azaldan tabiatan yangi madaniyatlar, turli xalqlarning urf-odatlarini va an’analari bilan tanishishga qiziqib kelgan. Shu sababli, uning tarixi qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Etnomadaniy turizmning paydo bo‘lishi ko‘pincha Buyuk geografik kashfiyotlar davri bilan bog‘liq hisoblanadi [3].

AQShning Berkli Universiteti professori Nelson X.X.Grabern ta’kidlaganidek, “Turizmning etnik yo‘nalishlari faqat zamonaviy davrda paydo bo‘lgan hodisa emas. Ziyoratlar va boshqa xalqlarni tanish uchun qilingan sayohatlar qadimdan mavjud bo‘lgan. Faqatgina zamonaviy turizmdan farqli ravishda ular madaniy va diniy ehtiyojlarga bog‘langan” [4].

### ASOSIY QISM

Etnomadaniy turizmni ilmiy asosda o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lsa-da, uning ildizlari qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Turli xalqlar hayoti, madaniy urf-odatlarini va an’alariga qiziqish insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida namoyon bo‘lib kelgan. Uning tarixiy bosqichlari juda muhim va qiziqarli jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, qadimgi Misr, Babil (Vaviloniya), Xitoy, Hindiston, Makka, Quddus yoki o‘zimizning Buxoro va Samarqand shaharlariga insonlarning savdo, haj yoki ziyorat maqsadida qilgan sayohatlari davomida turli xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarning rivojlangani, Yunon tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” asarida sayohatlari davomida o‘rgangan turli xalqlar madaniyati va urf-odatlarini haqida ma’lumotlar keltirgani [5], Rim tarixchi va olimlari Strabon, Polibiy va Posidoniylar asarlarida [6] o‘z davridagi xalqlarning turmush tarzi va madaniyati tahlil qilingani, Marko Polo Sharq va G‘arb o‘rtasidagi aloqalarni, shu jumladan Ipak yo‘li orqali savdo va madaniy aloqalarni o‘rganib, o‘zining “Marko Polo sayohati” asarida Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarini bog‘lagan savdo va madaniy aloqa yo‘li bo‘lgan Ipak yo‘li orqali qilgan sayohatlarini bayon qilgani [7], Ibn Battuta o‘z sayohatlari davomida ko‘rgan xalqlarning madaniyatini o‘rganganib, bu haqida o‘zining “Sayohatnoma” asarida ma’lumotlar bergani [8] Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida sayohatlari davomida turli xalqlar madaniyati haqida to‘plagan ma’lumotlarining keltirilgani [9], antropologiya va madaniy tadqiqotlarning rivojlangani etnomadaniy turizmning, uning tarkibidagi etnografik turizm va etnoturizmlarning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari sifatida ko‘rilishi mumkin.

Amerikalik olim Valen Lyusi Smitning fikricha, turizm shakllangan faoliyat sifatida kamida qadimgi sivilizatsiyalar davriga borib taqaladi. Unga ko‘ra, “Etnoturizm “an’anaviy” yoki “ibtidoiy” xalqlarga bo‘lgan qiziqish asosida shakllangan bo‘lib, mustamlakachilik siyosatining ta’sirida keng yoyilgan va keyinchalik global turizm industriyasida alohida yo‘nalish sifatida rivojlangan” [10].

Amerikalik professor Din Makkennell esa etnoturizmning mohiyatini ijtimoiy-psixologik omillar bilan izohlaydi. Uning fikricha, “zamonaviy turist industrial jamiyatda yo‘qotilgan qadriyatlarni qayta topish maqsadida boshqa xalqlar hayotida autentiklikni izlaydi. Shu bois etnoturizm faqat iqtisodiy yoki siyosiy sharoitlar ta’sirida emas, balki insonning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllangan” [11].

XX asrga kelib ommaviy turizm jadal rivojlana boshladi. 1975 yilda Jahon Turizm Tashkilotining (UNWTO) tashkil topishi va hozirda uning tarkibida 160 ta ishtirokchi davlatning mavjudligi [12], dunyo bo‘yicha turizm sohasiga qaratilayotgan e’tiborning ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham bu sohada qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PF-9-sonli [13], 2024-yil 18 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102-sonli [14], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 582-sonli [15], 2024-yil 30-dekabrda "Tarixiy obyektlar va turizm rivojlanmagan hududlarda mehmonxonalar faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 919-sonli [16], 2025-yil 24-iyundagi "Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 385-sonli [17] qarorlari turizm sohasi, jumladan etnoturizm sohasining rivojlanishi uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda etnoturizmga qaratilayotgan e'tibor an'anaviy qishloq turizmining yo'lga qo'yilayotgani, hunarmandchilik va milliy san'at sohasining rivojlantirilayotgani, etnik festival va bayramlarning tashkil etilayotganida ham namoyon bo'lmoqda. "Boysun bahori" festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, O'zbekistondagi turli millat oshxonalarining taomlari bilan tanishish imkonini beruvchi Milliy taomlar festivallari, bir necha yillardan buyon o'tkazib kelinayotgan «Ipak yo'lida turizm» Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi, "O'zbekiston etno o'yinlari" ("Uzbekistan Ethno Games"), "Yoshlar turizmi" ("Youth Tourism"), "Bahodirlar o'yini" hamda "Etnoturizm va etnosport: xorij tajribasi va rivojlanish istiqbollari" kabi yirik tadbirlar ham mamlakat turizm salohiyatini yanada oshirish, xorijiy turistlar tashrifini ko'paytirishga qaratilgan.

Xitoylik tadqiqotchi olim Li Yang o'z tadqiqotida etnoturizmga asosan, turli etnik guruhlarning madaniy meroslari, an'analari va hayoti bilan tanishish imkonini beruvchi turizm turi sifatida qaraydi.

Li Yang etnoturizmning asosiy maqsadi etnik guruhlarning madaniyatini saqlab qolish va ularning iqtisodiy rivojiga yordam berish deb hisoblaydi.

Li Yang o'z tadqiqotida etnoturizmning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qilib, etnik merosni saqlash va etnik g'ururni oshirish bilan bog'liq muammolarni muhokama qiladi. U etnoturizmni rejalashtirishda to'rtta asosiy manfaatdor guruh, ya'ni davlat, tadbirkorlar, etnik guruhlar va sayyohlar nuqtai nazarlarini o'rganib, ularning o'zaro munosabatlari va ta'sirini tahlil qiladi [18].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bu borada yakuniy xulosaning yo'qligi, turizmning ushbu turlarini tasniflashda ko'plab fikrlar va konseptual yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi.

Bizningcha, etnoturizm va etnografik turizm o'zaro bog'liq, bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa-da, maqsadi va yo'nalishlari jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Etnoturizm - bu muayyan etnik guruhlar, ularning madaniyati, an'analari va turmush tarzi bilan tanishishga qaratilgan turizm turi bo'lib, milliy bayramlar va festivallarda qatnashish, an'anaviy hunarmandchilik va xalq san'ati bilan tanishish, milliy taomlar va urf-odatlarni o'rganish, mahalliy xalq bilan bevosita muloqot qilish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Etnografik turizm esa ko'proq tadqiqot yo'nalishida muayyan xalqlarning etnografiyasi, ya'ni tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarni o'rganishga, bunda etnografik tadqiqotlar o'tkazish, arxeologik va tarixiy obyektlarni o'rganish, xalq og'zaki ijodi va an'anaviy madaniyatni tahlil qilish, ilmiy ekspeditsiyalar va joylarda o'tkaziladigan kuzatuvlarga asosiy e'tibor qaratadi.

Qisqacha aytganda, etnik turizm ko'proq sayohat va dam olish bilan bog'liq bo'lsa, etnografik turizm ilmiy izlanishlarga yo'naltirilgan bo'ladi.

Rivojlanayotgan etnoturizm milliy madaniyatlarning tiklanish va rivojlanish omilidir. Chunki u unutilgan an'anaviy hunarmandchilik bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi, hunarmandchilik maktablarining yaratilishi va o'sha hududning tili, urf-odatlari, madaniyati nafaqat saqlab qolinishiga, balki ommalashtirilishiga ham hissa qo'shadi [19].

## **XULOSA**

Albatta, etnoturizm ham, etnografik turizm ham mahalliy xalqlarning madaniyati, an'analari va urf-odatlari bilan tanishishga yo'naltirilgan bo'lib, etnomadaniy turizmning ajralmas qismi

hisoblanadi. Ular turistlarni jalb qilish bilan birga mahalliy madaniyatni saqlab qolish, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikka ham katta hissa qo‘shadi.

Etnoturizmning rivojlanishida etnografik obyektlar va etnoparklar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular milliy madaniyatni namoyon etish va sayyohlarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu sohaning rivoj topishi infratuzilmaning yaxshilanishiga, xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, mahalliy mahsulotlar bozorining kengayishiga, mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy aholi turmush sifatini yaxshilashga imkon yaratadi.

O‘z navbatida, etnoparklarni tashkil etish ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli loyiha bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududlarini rivojlantirish hamda sayyohlarni jalb etishga xizmat qiladi [20].

Bugungi kunda dunyo miqyosida etnoturizmga bo‘lgan qiziqish, uning tobora rivojlanib borayotgani etnoturizmning tarixiy bosqichlarini va kelib chiqish sabablarini ilmiy asosda o‘rganishga, turli jihatlarini tahlil qilishga, xalqlarning o‘tmish madaniyatini o‘rganishga, umuman bu sohaga e‘tiborning ortib borishiga turtki bo‘lmoqda. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli jabhalarida ham, ayniqsa, keyingi uch-to‘rt yilda ro‘y bergan ulkan o‘zgarishlar va rivojlanishlar sayyohlarning xalqimizning o‘tmish madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Bu jarayon esa o‘tmishdagi madaniy taraqqiyotni to‘liqroq tushunish, etnoturizmni rivojlantirish uchun barcha choralarni ko‘rishlikni talab qiladi. Yurtimizda bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar esa bugungi kunda jamiyatimizda faqatgina ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi, shu bilan birga, ajdodlarimizning ijtimoiy-ma‘naviy dunyosini idrok etishga, ularning yashash tarzini zamon talablari asosida chuqur anglab yetishga, kelajak avlodni barkamol, vatanparvarlik, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga o‘z hissasini qo‘shmay qolmaydi.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Пресняков В.Н. Народные промыслы республики Мордовия и этнический туризм / В.Н.Пресняков, М.А. Жулина // География и туризм. Сборник научных трудов. – Пермь, 2010. – С. 156-166.
2. Хашимов Ш.Ж. Этнотуризм Ўзбекистон халқаро имиджини юксалтиришнинг муҳим омили сифатида. “Илим-фан муаммолари тадқиқотчилар талқинида” мавзусидаги халқаро илмий конференция, 2024. <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/issue/view/45>
3. Safarova T.R. Genesis of ethnocultural tourism: historical and philosophical analysis. Proceedings of Multidisciplinary International Scientific-Practical Conference "Current Issues of Science, Education and Industry in Modern Research", 2020.
4. Nelson H. H. Graburn. "The Anthropology of Tourism". Annals of Tourism Research, 1983, p.11.
5. François Hartog. "The Mirror of Herodotus: The Representation of the Other in the Writing of History". The University of Chicago Press, Vol. 85, No. 3, 1990.
6. Clarke Katherine. Between Geography and History: Hellenistic Constructions of the Roman World. (Oxford Classical Monographs.) New York: Oxford University Press, 1999.
7. Lauro Martines. Travel and Culture in Medieval Venice. New Haven, London: Yale University Press, 2004.
8. Ross E. Dunn. The Adventures of Ibn Battuta: A Muslim Traveler of the Fourteenth Century, 1986.
9. Akbar S. Ahmed. Toward Islamic Anthropology definition, dogma and directions. International Institute of Islamic Thought. Herndon, Virginia, U.S.A. 1406 A.H./1986 AC.
10. Valene L. Smith. "Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism". Philadelphia: "University of pennsylvania press", 1989. 2nd ed.– P. 4.
11. Dean Maccannell. "The Tourist: A New Theory of the Leisure Class". Berkeley and Los Angeles, California: University of California Press, 1976. – p. 13.

12. Эл.манбаа: [https://uza.uz/en/posts/samarkand-to-host-the-25th-unwto-general-assembly-session\\_370645?utm\\_source](https://uza.uz/en/posts/samarkand-to-host-the-25th-unwto-general-assembly-session_370645?utm_source) (Мурожаат санаси: 30.07.2025)
13. Эл.манбаа: <https://lex.uz/docs/6759637> (Мурожаат санаси: 30.07.2025)
14. Эл.манбаа: <https://lex.uz/docs/7031233> (Мурожаат санаси: 30.07.2025)
15. Эл.манбаа: <https://lex.uz/docs/7114983> (Мурожаат санаси: 30.07.2025)
16. Эл.манбаа: <https://lex.uz/docs/7315222> (Мурожаат санаси: 30.07.2025)
17. Эл.манбаа: <https://lex.uz/docs/7592507> (Мурожаат санаси: 10.09.2025)
18. Yang L. Planning for Ethnic Tourism: Case Studies from Xishuangbanna, Yunnan, China - Waterloo, Ontario, Canada, 2007.
19. Maya Gvinjila. Features of the development of ethnographic tourism, 2018.
20. Очилова Х.Ф. Перспективы этнопарков в Узбекистане. Туризм и гостеприимство. 2020. № 1. – С.71.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000